

УДК 338.2:004

Xazirova Marxabxon Raxmidinovna

*Andijon viloyati Asaka tumani 3-son kasb-hunar maktabi tarix fani
o'qituvchisi*

Hojimatova Gulhayo Abdusattorovna

*Andijon viloyati Asaka tumani 3-son kasb-hunar maktabi matematika
fani o'qituvchisi*

Yunusov G'ulomjon Nizomiddinovich

*Andijon viloyati Asaka tumani 3-son kasb-hunar maktabi ishlab
chiqarish ta'limi ustasi*

Tursunov Sirojiddin Gulomovich

*Andijon viloyati Asaka tumani 3-son kasb-hunar maktabi ishlab
chiqarish ta'limi ustasi*

YANGI O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR - MAMLAKAT IQTISODIYOTINING TAYANCHI SIFATIDA

Rezyume: XXI asrning boshlari axborot va sanoat inqilobi, shuningdek, iqtisodiyotning globallasuvi jarayonlari asosida zamonaviy iqtisodiyotga raqamlashtirish jarayonlarini faol joriy etish bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda to'rtinchi sanoat inqilobi ta'siri ostida rivojlanishning yangi bosqichiga global o'tish uchidan uchigacha texnologiyalarning paydo bo'lishi, yangi ishlanmalarni joriy etish tezligining oshishi, mahsulotlarning hayot tsiklining qisqarishi, yangi o'yinchilarning paydo bo'lishi va raqamli transformatsiya tendentsiyalarining kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda sanoatni raqamlashtirish fazoviy-tarmoq tuzilmalarining texnologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shuning uchun sanoat tomonidan innovatsion raqamli texnologiyalar asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ish sanoat sektori uchun raqamli texnologiyalarning ahamiyatini o'rganib chiqdi.

Kalit so'zlar: "raqamli O'zbekiston-2030", davlat dasturlari, sanoatni rivojlantirish, texnologik tartib, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar.

Хазирова Мархабохон Рахмидиновна

*Учитель истории профессионального училища № 3 Асакинского
района Андижанской области*

Гаджиматова Гульхайо Абдусатторовна

*Учитель математики профессиональной школы № 3 Асакинского
района Андижанской области*

Юнусов Гуломжон Низомиддинович

*Мастер производственного обучения профессиональной школы №
3 Асакинского района Андижанской области*

Турсунов Сирожиддин Гуломович

*Мастер производственного обучения профессиональной школы №
3 Асакинского района Андижанской области*

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ - ОСНОВА ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

Резюме: Начало XXI века обусловлено активным внедрением процессов цифровизации в современную экономику на основе информационной и промышленной революции, а также процессов глобализации экономики. Происходящий в настоящее время мировой переход в новую фазу развития под влиянием Четвертой промышленной революции характеризуется появлением сквозных технологий, увеличением скорости внедрения новых разработок, сокращением жизненного цикла продуктов, появлением новых игроков, усилением трендов цифровой трансформации.

В современной экономике цифровизация промышленности играет значительную роль в технологическом развитии пространственно-отраслевых структур, поэтому производство промышленностью

высокотехнологичной продукции на базе инновационных цифровых технологий имеет ключевое значение для развития экономики. В данной работе исследовались значение цифровых технологий для промышленного сектора.

Ключевые слова: «Цифровой Узбекистан-2030», государственные программы, промышленное развитие, технологический уклад, цифровая экономика, цифровые технологии.

Khazirova Markabokhon Rachmidinovna

Teacher of history of Vocational School No. 3 of Asaka district, Andijan region

Hojimatova Gulhayo Abdusattorovna

Teacher of mathematics of Vocational School No. 3 of Asaka district, Andijan region

Yunusov Gulomjon Nizamiddinovich

Master of production education of Vocational School No. 3 of Asaka district, Andijan region

Tursunov Sirozhiddin Gulomovich

Master of production education of Vocational School No. 3 of Asaka district, Andijan region

DIGITAL TECHNOLOGIES IN NEW UZBEKISTAN-AS THE BACKBONE OF THE COUNTRY'S ECONOMY

Resume: The beginning of the XXI century is due to the active introduction of digitalization processes into the modern economy based on the information and industrial revolution, as well as the processes of economic globalization. The current global transition to a new phase of development under the influence of the Fourth Industrial Revolution is characterized by the emergence of end-to-end technologies, an increase in the speed of introduction

of new developments, a shortening of the product lifecycle, the emergence of new players, and the strengthening of digital transformation trends.

In the modern economy, the digitalization of industry plays a significant role in the technological development of spatial and sectoral structures, therefore, the production of high-tech products by industry based on innovative digital technologies is of key importance for the development of the economy. This paper examines the importance of digital technologies for the industrial sector.

Keywords: "Digital Uzbekistan-2030", government programs, industrial development, technological structure, digital economy, digital technologies.

Dolzarblik. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotga global raqobatbardosh raqamli texnologiyalarni, shu jumladan ilg'or ishlab chiqarish, axborot, telekommunikatsiya, shuningdek, sun'iy intellekt, virtual haqiqat, narsalar interneti tizimlarini joriy etish va shunga mos ravishda iqtisodiyotni raqamli formatga o'tkazish yoki boshqacha qilib aytganda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish davom etmoqda.

Sanoatda raqamlashtirish sanoat 4.0 kontsepsiyasiga asoslanadi, bu barcha jarayonlarni oxirigacha raqamlashtirishni va ularni aqlli texnologik platformaga integratsiyalashni ta'minlaydi. Raqamlashtirish vazifalari O'zbekiston taraqqiyotining strategik yo'nalishlariga mustahkam kirib, mamlakatning uzoq muddatli ilmiy-texnologik va iqtisodiy rivojlanish vektorini belgilovchi "raqamli O'zbekiston-2030"⁸ davlat dasturi ishga tushirilishi munosabati bilan qo'shimcha dolzarblikka erishdi. Bu raqamli transformatsiya, raqamli tizimlarni asoslash va shakllantirish va raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish masalalarining shubhasiz dolzarbligi va amaliy ahamiyatini ta'kidlaydi [1].

Milliy iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlashda davlat iqtisodiy siyosatining yangi ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bugungi kunda

jamiyat iqtisodiy taraqqiyotiga erishish yo'lida davlat fiskal siyosatini samarali qo'llash masalasi ancha dolzarb va tadqiq etilishi lozim bo'lgan mavzulardan sanaladi[1].

Joriy 2020 yilning "ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlanishi O'zbekistonni rivojlanish tarixidagi ilk inqilobiy davrni boshlanishi deb hisoblasak ayni muddao bo'ladi. Prezidentimizning nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilim saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak bo'lib, ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi deb donishmandlarcha aytgan so'zlari muqaddas kitobimiz Qur'onning ilk oyatida xam "o'qing", "o'qing" deb ilmu ma'rifatga alohida urg'u berilganligi va "ilm"so'zining 900 ga yaqin o'rinda turli ma'nolarda kelganligi bu davlatning muhimligini anlatadi.

Hozirda taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shilishimiz uchun avvalo ilg'or zamonaviy axborot-kommunikasiya, Internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur egallash orqali yuksalishning eng qisqa yo'lidan borishimiz kerak. Buning uchun jamiyatimizning barcha qatlamlarida innovasion texnologiyalarni qo'llash borasidagi savodxonlikni uzluksiz ravishda oshirib borishimiz zarur. Ilmu ma'rifatning natijadorlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiluvchi ko'p sonli texnologiyalardan asosiysi raqamli iqtisodiyot texnologiyalari hisoblanadi. Hozirgi kunda uni qisqacha raqamli iqtisodiyot deb atalmoqda. Lekin avval "raqamli iqtisodiyot o'zi nima?", "An'anaviy iqtisodiyotdan farqi nimada?", "Qanday belgilari hamda qulayliklari bor?", "Uni rivojlantirish bizga nima beradi?"degan savollarga javob topish kerak bo'ladi.

Ayni paytda ushbu atamani butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, biznesmenlar o'z faoliyatlarida qo'llab kelmoqdalar.

Maqsad. Yangi o'zbekistonda raqamli texnologiyalar - mamlakat iqtisodiyotining tayanchi sifatida baholash.

Muhokma. Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy-iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilari yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvini sifatli amalga oshirishning mavjudligi, buxgalterlik, auditorlik va boshqaruv tizimlarining o'zaro elektron integrasiyalashuvi, ma'lumotlarning elektron bazalari, CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi, turli xildagi korporativ tarmoqlardan iborat.

Uning qulayliklariga turli to'lovlar uchun xarajatlarning qisqarishi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi), tovarlar va xizmatlar haqida juda ko'p operativ ma'lumotlarga ega bo'lgan xolda, ularni jahon bozoriga olib chiqish imkoniyatlarining kengayishini kiritishimiz mumkin.

Jahondagi globallashuv sharoitida tashqi migrasiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investisiyalar, IT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi[2].

Raqamli iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiyotdan farqi nimadalgiga izoh beraylik. Masalan, xaridorga qandaydir mahsulot yoki xizmat turi kerak. Uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisod. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanib kelmoqdamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lovlar yordamida kommunal xizmatlar, telefon, Internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklarasiyasi hamda hisobotini topshiramiz, kartadan - kartaga pul o'tkazamiz, uyimizga yoki ishxonamizga taom buyurtma qilamiz va hokazo. Keyingi

yillarda internetga kirish va undan foydalanish bo'yicha shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi tafovut yo'qolib bormoqda. Mobil Internet tobora rivojlanmoqda.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan platformalarning rivojlanish borasida xorijiy tajriba sifatida "Alibaba" elektron savdo tizimiga ega bo'lgan Xitoy kompaniyasini keltirib o'tish mumkin. Undan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, ma'lumotlar to'plash jarayonida iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun o'ta raqobatli ustunliklar yaratiladi. "Alibaba" bu – oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidan iborat bo'lgan zamonaviy boshqaruv tizimidir. Bundan tashqari butun dunyodagi kitob savdosiga va kutubxonalarga xizmat qiluvchi "Amazon" raqamli portalini, 1000 dan ortiq turdagi masofaviy ta'limni qo'llab-kuvvatlovchi ommaviy onlayn ochiq kurslarini, milliondan ortiq mualliflik kurslarini misol keltirsak bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kelajakda bizga nima beradi?

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini bir necha barobar oshirib, mamlakat milliy xavfsizligi hamda mustaqilligini ta'minlovchi asosiy indikator ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. "Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor" degan Prezidentimizning so'zlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари. Республика илмий-амалий конференцияси, 2019 йил 8 ноябрь. 19 бет.

2. <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>